

UMAR XAYYOM IJODINING TARJIMASIDAGI MUAMMOLI MASALALAR

*D. Mamatova¹**Annotatsiya:*

Ushbu maqola badiiy adabiyot, xususan mumtoz adabiyotga tegishli Umar Xayyomning ruboiylarini tarjima qilishdagi bir qator muammolarni o'rganadi hamda fors tilidagi madaniy, grammatik va she'riy o'ziga xosliklar tarjima jarayonida qanday qilib o'zgairb yoki yo'qolib ketishini ko'rsatib beradi. Unda so'zma-so'z va ma'noni ochib berishga qaratilgan tarjima usullari o'zaro solishtirib, tarjima jarayonida asl ma'nodan o'gish sabab bo'luvchi bir qator omillarni tushuntirib beradi. Tavsiya sifatida, maqolda Xayyomning asl falsafasini chuqurroq anglash uchun bir nechta tarjimonlarning versiyalarilarni o'qib ko'rish muhimligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: mumtoz adabiyot, ruboiy, mohiyat, tarjima, noaniqliklar, fors tili.

doi: <https://doi.org/10.2024/qktqaw20>

Mashhur fors allomasi, mumtoz adabiyotning mashxur namoyondalaridan biri shoir, matematik va astronom Umar Xayyom umrida davomida asosan ilm-u fanga doir tajriba va tadqiqotlar bilan mashg'ul bo'lgan. Biroq bugungi kunga kelib, uni butun dunyo hayot falsafasini anglash, ishq va tafakkur haqidagi ruboiylari orqali taniydi. Shu kunga qadar ham uni ko'plab insonlar aynan she'riyati uchun yodga oladilar. Uning ruboiylari hali-hanuz o'z qadr-qimmatini yo'qotmagan holda avloddan avlodga ko'chib boradi.

Umar Xayyom ijodining butun dunyoga yoyilishida, shubhasiz, tarjimonlikning o'rni kattadir. Xayyom ruboiylari dunyoning bir qancha tillariga tarjima qilingach mintaqalar oshib dengiz ortigacha yetib borgan. Biroq gap tarjima haqida ketarkan, bir narsani unutmaslik kerak-ki, Xayyom bitgan misralarning asl fors tilidan turli tillarga, xususan, ingliz tiliga tarjima qilinishi turli anglashilmovchiliklardan holi emas. Xayyom ijodini fors-tojik tillar oilasiga mutlaqo oid bo'lmagan, kelib chiqishi batamom boshqa bo'lgan tillarga tarjima qilish jarayonida bir qator muammolar yuzaga kelgani sir emas. Ushbu qiyinchiliklarga to'la jarayon ko'pincha asarning boshqa tildagi versiyasida noaniqliklarni vujudga keltirishi, va hatto iqtiboslarning asl ma'nosini o'zgartirib yuborishi ham mumkin.

Umar Xayyomning ruboiylarini tarjima qilishdagi eng yirik muammolardan biri bu she'riyatning o'ziga xos murakkabligidir. Ma'lumki, mumtoz adabiyotda ijod qilgan Umar Xayyom o'z fikrlarini, hissiyotlarini aruz vaznidan foydalanib ifodalagan. Aruz vazni esa, o'z vaqtida, oddiygina so'z va bo'g'inlarning joylashuviga oid qoidalar emas. Aruz vazni murakkab bir san'at turi desak ham, mubolag'a bo'lmaydi.

Umar Xayyom ijod qilgan bu vazn turida fors tili grammatikasiga oid hodisalar, faqatgina sharq adabiyotiga xos bo'lgan xususiyatlar, sharq mumtoz adabiyotiga buyuk adiblarning asarlariga ishoralar, Qur'oni Karim va Islom madaniyatiga bog'liq elementlar, aynan uning davriga xos bo'lgan badiiy o'xshatishlar, metaforlar, Yevropa va Amerika tarjimonlari to'la tushunishi qiyin bo'lgan tanosub, tazod, talmeh, kitobat, istihroj yoxud tashxis kabi she'riy san'atlar mavjud. Bu murakkab tuzilish sabab ruboiylar boshqa tilga tarjima qilinganda nafaqat nafosatini, balki mazmunini ham boy berishi hech gap emas.

Darhaqiqat, metafora va turfa xil ma'nolarga boy fors tili leksikasi tarjimonlar oldiga o'ziga xos qiyinchilik tug'diradi. Umar Xayyom misralari fors madaniyati va falsafasida

¹ Dilrabo Maxmudjanovna Mamatova, Namangan viloyati, Namangan shahri

chuqur ildiz otgan. Ular ko'pincha so'fiylik oqimi vakillari bitgan asarlar kabi boshqa tillarda bayon etilayotgan g'oyani o'zgartirmay yetkazib berish qiyin bo'lgan elementlarga to'la. Tarjimonlar ushbu madaniyatlar o'rtasidagi har xillik sabab vujudga keladigan noaniqliklarni oldini olish ustida ishlar ekanlar, ruboiy mazmunini boshqa bir tilda kitobxonga osonroq yetkazib berish usulini tanlashlariga to'g'ri keladi. Bu esa ko'pincha asl ma'noni soddalashtirilishga yoki hatto buzilishiga olib kelishi mumkin.

Fors tilining sintaksisi tarjima jarayonini yanada murakkablashtiradi. Fors tilida gap bo'laklarining jumladagi joylashuv tartibi o'zgaruvchan hisoblanib, ba'zan gapdagi so'zlarning tartibini o'zgarishi ham turfa xil ma'nolarga ega misrani yaratish imkonini beradi. Bu imkoniyatdan bo'lsa, Umar Xayyom, albatta, juda keng foydalangan. Bu lingvistik xususiyatlar bo'lsa, boshqacha grammatik tuzilmalarga ega bo'lgan tillarga, xususan, ingliz tiliga to'g'ridan-to'g'ri yaxshi tarjima qilinmaydi. Shu tufayli tarjima qilish jarayoni Umar Xayyom ruboiylarining asl versiyasidagi mahoratning yo'qolishi, asl matndan sezilarli og'ishlarga sabab bo'lishi shubhasizdir.

Shu sabab, tarjimonning vazifasi shunchaki so'zlarni tarjima qilish emas, balki ruboiylarda nazarda tutilgan asl falsafani boricha boshqa tildagi kitobxonga yetkazib bera olishga harakat qilishdir.

Bu har bir tarjimonni ikkilantirib qo'yadi va mavjud usullardan birini tanlashga majbur etadi: so'zma-so'z tarjima yoki izohli tarjima. To'g'ridan-to'g'ri tarjima asl matnga iloji boricha yaqinroq bo'lishga intiladi, uning so'zlarini saqlab qoladi, lekin ko'pincha tarjima qilinyotgan tilda tushunarsiz yoki jozibador emas bo'lib tuyuladi. Lekin bu uslub orqali tarjimon asl matnning ko'proq qismini saqlab qola oladi.

Izohli she'riy tarjima uslubi bo'lsa, boshqa prinsiplarga asoslangan bo'ladi. Jumladan, Edvard FitsJeraldning ruboiylarning mashhur tarjimasini mazkur yondashuvning yorqin namunasi ekanligini e'tirof etishimiz mumkin. Bu uslubida tarjima qilingan ruboiylar o'zining she'riy go'zalligi va tushunishga osonligi bilan mashhur, ammo u Omar Xayyomning asl niyatidan sezilarli darajada uzoqlashgani uchun ham boshqa adiblar tomonidan keskin tanqid qilingan. Buning ustiga, FitsJeraldning tarjimalarida Viktoriya Adabiyoti davrining o'ziga xos falsafiy qarashlarining ta'sirini ham payqash mumkin. Bu bo'lsa, asl sharqona falsafadan yanada og'ib ketilganlikni ifoda etadi.

Shu yerda yana bir muammo vujudga kelganini ko'rish mumkin. Negaki, tarjimonning madaniy, ma'naviy kelib chiqishi, dini, e'tiqodi, qabul qilgan qadriyatlarini, va turli mavzulardagi shaxsiy nuqtai nazari tarjima qilanyotgan asarning yakuniy natijasida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Tarjimonning madaniyat jihatdan kelib chiqishi, shaxsiy qarashlari va asl matnni sharhlashi muqarrar ravishda tarjimaga ta'sir ko'rsatadi va undagi ustuvor g'oyalarni shakllantiradi. Masalan, FitsJerald ham Xayyom falsafasini o'ziga xos talqin etgan, o'z uslubida tushungan. Bu esa Umar Xayyom nazarda tutgan ma'no yoxud uning dunyo bilan ulashmoqchi bo'lgan xabarlaridan keskin farq qilishi mumkin. Ushbu subyektivlik, albatta, tarjima jarayonining ajralmas qismidir, lekin u kitobxonning asl asar haqidagi tasavvurini mutlaqo o'zgartirib yuborish kuchiga ega.

Shu kabi muammolar Xayyomning ruboiylarini boshqa tilda o'qiyotganlar uning iqtiboslarini qanday qabul qilishlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Yer yuzidagi millionlab kitobxonlar Umar Xayyomning asarlarini to'g'ridan-to'g'ri asl forsiy tilida o'qiy olmaydilar. Til to'sig'i bunga yo'l qo'ymagani bois tarjimalarni o'qish Xayyom ijodini bilan tanishishnin yagona imkonidir. Tarjimalardagi noaniqliklar bo'lsa, uning falsafasini noto'g'ri tushunish yoki haddan tashqari soddalashtirishga olib kelishi mumkin. Fors madaniyati yoki tilidan bexabar kitobxonlar tarjimada yo'qolgan nazokat va chuqurlikni tushunmasdan, tarjima qilingan matnni o'zgacha kayfiyat bilan qabul qilishlari mumkin.

Shu kabi qiyinchiliklarga qaramay, dunyoning turli burchaklarida turli tarjimonlar Xayyom ruboiylarining yanada aniqroq tarjimalarini iloji boricha asl mohiyatiga yaqin qilib yaratishga harakat qilishgan. Chunonchi, Xayyomning ruboiylari o'zbek tili libosini kiyishida

Shoislom Shomuhamedov, Jamol Kamol kabi mohir tarjimonlarning hissalari bag'oyat katta. Ushbu shoirlar yuzlab ruboiylarni imkon qadar ulardagi jozibadorlikni va mohiyatni saqlab o'zbek tiliga tarjima qilishga muvaffaq bo'lishgan. Bu sa'y-harakatlar ko'pincha fors tilini va uning madaniy mazmunini chuqur tushunishni, shuningdek, asl matnning yaxlitligini saqlash majburiyatini o'z ichiga oladi. Biroq, hatto eng puxta bajarilgan tarjimalar ham yuqorida ta'kidlangan ziddiyatli holatlardan butunlay qochib qutula olmaydi, chunki tillar va madaniyatlar o'rtasidagi tub farqlar har doim o'z so'zini aytib kelgan va aytishda davom etadi.

Xulosa qilsak, Umar Xayyomning ruboiylarining tarjima versiyalardagi noaniqliklar madaniy va lisoniy jihatdan boy mumtoz adabiyotini boshqa tligan tarjima qilish naqadar murakkab va mushkul ekanligini yana bir bor isbotlaydi. Bu noaniqliklar noto'g'ri talqinlarga olib kelishi mumkin bo'lsa-da, tarjimalarga tanqidiy nigoh bilan yondashish bilan birga tarjimonning mehnatini hurmat qilish ham zarurligini yodda tutish kerak. Kitobxonlarga kelsak, Umar Xayyomning yaxshiroq anglash masalasiga yechim sifatida faqatgina bitta tarjimonning emas, balki ko'plab tarjimonlarning versiyasini o'qib ko'rish tavsiya etiladi. Zero, Umar Xayyomning ijodiga ko'proq odamlarning ko'zi bilan qarab ko'rish, kitobxonga ko'proq eshiklarni ochadi, asl mohiyatga yanada yaqinlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Temirov, M. M. (2012). "Difficulties in poetry translation". *Polinema Journal*.
- [2]. Cozma, M. (2019). "Translation errors across genres: A research perspective". *Romanian Journal of English Studies*.
- [3]. Matusov, E. (2019, April). "The challenges of using neural machine translation for literature". *Polinema Journal*.
- [4]. Soltani, F., Nemati, A., et al. (2020, June). "An analysis of translation errors in 5 literary genres based on American Translation Association (ATA) framework". *Literature, Linguistics & Criticism*.
- [5]. Ismoilova, M. (2022, November). "Badiiy tasvir vositalari tarjimasi qiyinchiliklari (Umar Xayyom ruboiylari tarjimalari misolida)". *International Scientific Online Conference Journal*.
- [6]. Ismoilova, M. (2023, February). "Umar Xayyomning o'zbek tarjimonlari". *Journal of New Century Innovations*.
- [7]. Britannica, T. Editors of Encyclopaedia. (2024, July 1). "Omar Khayyam". *Encyclopedia Britannica*.
- [8]. <https://www.britannica.com/biography/Omar-Khayyam-Persian-poet-and-astronomer>
- [9]. Mousavian, S. N., Sumner, S., Aminrazavi, M., & Van Brummelen, G. (2024). Umar Khayyam. In E. N. Zalta & U. Nodelman (Eds.), 'The Stanford Encyclopedia of Philosophy' (Summer 2024 Edition). <https://plato.stanford.edu/archives/sum2024/entries/umar-khayyam/>